

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

A’ZAMXONOV OLTINXON ASHRAFXON O‘G‘LI

**KURASH BO‘YICHA MURABBIYLAR KASBIY MAHORATINI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq–2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

A‘zamxonov Oltinxon Ashrafxon o‘g‘li

Kurash bo‘yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish
mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

Аъзамханов Олтинхан Ашрафхан ўғли

Совершенствование механизмов развития профессионального
мастерства тренеров по курашу 27

Azamxonov Oltinxon Ashrafxon ugli

Improvement of mechanisms for developing professional skills of kurash
coaches 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

A’ZAMXONOV OLTINXON ASHRAFXON O‘G‘LI

**KURASH BO‘YICHA MURABBIYLAR KASBIY MAHORATINI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped2308 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.jtsu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Qirg‘izboyev Ma’rufjon Mo‘ydinovich**
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Raximov Vladimir Shavkatovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Olimov Alisher Isoqovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metalurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Web-sayt: www.jtsu.uz. e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Madaniyat saroyi”, konferensiyalar zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19- uy. Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M. Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

M.A. Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N. Shopulatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo bo'yicha sport tizimini rivojlantirish, sportchilar tayyorgarlik tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va olib borilmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sportni ommalashishiga xizmat qiluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirishda sport turlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyoda har bir xalq va elatning o'ziga hos milliy sport turlari bo'lganidek, mamlakatimizda ham kurash sport turi shiddat bilan rivojlanmoqda. Ko'plab mamlakatlarda kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakatimizda ham kurash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash tizimiga zamonaviy uslublarni joriy qilib borish ishlarini tizimli tashkil bo'yicha izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda sport turlarini rivojlantirishda malakali kadrlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Malakali mutaxassislar kurash sport turini rivojlantirishda asosiy vazifani bajarish bilan birga sport turini yanada ommalashtirish bo'yicha yangi uslublarni, innovatsion yechimlarni ishlab chiqmoqda. Shuningdek, xorijiy tajribani o'zlashtirish orqali o'quv-mashg'ulot jarayonlariga joriy qilib, yoshlar orasida malakali sportchilarni tayyorlab, mamlakat dovrug'ini dunyoga tanitmoqda. Malakali sportchilarning xalqaro musobaqalarda zafar qozonishi yoshlarning ularga bo'lgan taqlidi, ularga o'xshashga harakat qilishi yoshlar orasida kurash sport turi bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shu bois kurash sportida yangi uslublarni ishlab chiqish, uning jozibadorligini oshirishga qaratilgan kreativ yondashuvlarni joriy qilish zarurligini taqazo etmoqda. Bunday jarayonda zamon talablari doirasida ishlarni tashkil qiladigan malakali murabbiylarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimidagi muammolarni o'rganib, yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgach sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportga asosiy vositalardan biri sifatida yondashila boshlandi. Xususan, milliy sport turimiz bo'lgan kurashni olimpiya sport turlari qatoriga kiritish yo'lida rivojlantirish va ommalashtirish harakati boshlandi. Kurashni rivojlantirishda sport ta'lim muassasalarida sport yo'nalishlari, ixtisosliklar va mutaxassisliklar bo'yicha tegishli yo'nalishlar tashkil qilindi. Barcha sport yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida kurash bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilmoqda. Kurash federatsiyasi tashkil qilinib, sportchilarni jahon maydonlariga olib chiqish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirila boshlandi. Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga¹, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Bugungi kunda kurash bo'yicha mutaxassislarning malaka oshirish jarayonini tizimli tashkil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish hamda xorij tajribalarini o'zlashtirish bo'yicha tajribasini oshirishga yo'naltirish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, nazariy va amaliy bilimlarini o'zaro uyg'un rivojlantirish bo'yicha malaka oshirish jarayonini tashkil qilish, o'qitilayotgan fanlarni zamonaviy uslublarda o'qitish hamda kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirishga yo'naltirish asosiy muammoli masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ 394-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktayabrdagi PQ-3306-son "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-sonli "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarini to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari R.Salamov, A.N.Abdiyev, F.A.Kerimovlar izlanishlarida murabbiylarning kasb mahoratini oshirib borish zarur, degan xulosalarga kelishgan. Sohadagi yosh olimlar B.K.Erimbetov, Z.S.Artikov, Sh.E.Keldiyorov, Sh.S.Mirzanov, F.I.Bobomurodov, M.M.Qirg'izboyev, N.A.Chorshamiev, M.N.Shukurovlar kurashchilar tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Shuningdek, bevosita murabbiylar faoliyati va malaka oshirish jarayonini o'rgangan N.T.To'xtaboyev, Z.P.Rasulov, B.B.Ibragimov, I.A.Tursunaliyevlar² murabbiylar tayyorgarligini rivojlantirishga

² Саламов Р.С. Совершенствование образовательного процесса подготовки бакалавров по направлению «физическая культура и спорт». /дисс. док. наук. –Ташкент, 2003.-7 с.; Абдиев А.Н. Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. Пед. фан. док. ... дис. –Т.:ЎЗДЖТИ нашриёти, 2004. – 210 б.; Керимов Ф.А. Спортда илмий тадқиқотлар – дарслик. – Тошкент: Илмий тахника ахбороти – пресс нашриёти, 2021. – 380 б.; Еримбетов Б.К. Малакали курашчиларнинг мусобақа ва машғулот жараёнини педагогик назорат қилишнинг назарий-методик асосларини такомиллаштириш (кураш миллий спорт тури мисолида). Педагогика фанлари бўйича(PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: «Тошкент кимё-технология институти», 2019.-Б.51.; Артиков З.С. Белбоғли курашда статик ва динамик кучланиш давомида мувозанат сақлаш функциясини шакллантириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича (PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: «Тошкент кимё-технология институти», 2019. - Б.54.; Келдиёров Ш.Э. Кураш миллий спорт тури ҳаракатларини дастлабки ўргатиш услубларини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича(PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: «Тошкент кимё-технология институти», 2019. - Б.47.; Мирзанов Ш.С. Белбоғли курашчиларда куч қобилятини изокинетик машқлар ёрдамида ривожлантириш устуворлиги ва уни баҳолаш методикаси. Педагогика фанлари

qaratilgan bir qator ilmiy uslublarni, malaka oshirish jarayonini tashkil qilish modellarini ishlab chiqishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida kurash bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash muammolari bilan bir qator olimlar shug'ullanib kelishmoqda. Murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirish, ularning nazariy va amaliy tajribasini uyg'un rivojlantirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijlik olimlaridan L.P.Matveev malakali mutaxassislar tayyorlashda kasbiy mahoratni oshirish, V.N.Platonov yuqori malakali sportchilar tayyorlashda malakali murabbiylarning mahoratini oshirish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan. N.I.Antonova, N.V.Kandaurovalar esa sport ta'lim muassasalari xodimlari va murabbiylarda boshqaruv malakalarini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. V.V.Ayusheev, T.V.Xovanskayalar izlanishlarida murabbiylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash jismoniy tarbiya va sportning rivojlantirishga xizmat qiladi degan xulosaga kelishgan. A.E.Pavlov, I.G.Litvinseva, D.V.Maksimov³lar yakkakurashda sport zahiralarini shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha tajribasini oshirish hamda mazkur bilimlarni berish jarayonlarini individuallashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijlik Ma'rton Tomin, Attila Kossa, Szabolcs Berezvai, A'kos Kmetty, Luke Capizzo, S.R.Tabasia, A.A.Norastehb, B.Mirzaeic, H.Zarei, Kimberly S.Fasczewskia, Sara M. Powell B, Nolasco R. Stevens A, Jared W. Skinner, O.Uzera, N.U.Yildirim, C.Soylub, M.Ozal. Joel S. Burma, Ben Cameron, Tin Jasinovic, Victor Lun, Cody R.

бўйича(PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: «Тошкент кимё-технология институти», 2020.-Б.57.; Бобомуродов Ф.И. Курашчиларнинг морфологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда техник- тактик ҳаракатларини такомиллаштиришга дифференциал ёндашув. Педагогика фанлари бўйича(PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: «Тошкент кимё-технология институти», 2020. - Б.61.; Қирғизбоев М.М. Белбоғли курашда бўғимлараро эгилувчанликнинг устуворлиги ва уни ихтисослаштирилган тартибда ривожлантириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича(PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: «Тошкент кимё-технология институти», 2021.- Б.61.; Чоршамиев Н.А. Ёш курашчиларнинг тайёргарлик тизимида машқланиш ва тикланиш даражасини оширишда шарқона массаждан фойдаланиш методикаси. Педагогика фанлари бўйича(PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: «Тірографф», 2022.-Б.61.; Шукуров М.Н. Курашчиларни техник ҳаракатларга ўргатишда кластер услубидан фойдаланишни такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича(PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: «Тірографф», 2022.-Б.61.; Тўхтабоев Н.Т. Жисмоний тарбия мутахассисларининг касбий маҳоратини ривожлантиришга ташкилий-педагогик ёндашув. п.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.—Тошкент, ЎзДЖТИ, 2011.-Б.24.; Расулов З.П. Тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича(PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: ЎзДЖТСУ, 2021.-Б.67.; Ибрагимов Б.Б. Малака ошириш тизимида спорт курашлари бўйича тренерларнинг касбий маҳоратини такомиллаштириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича(PhD)...дисс.автореф.-Чирчик: ЎзДЖТСУ, 2021. - Б.59.; Tursunaliyev I.A. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimini pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha(PhD)...diss.avtoref.-Toshkent: «Tipograff», 2023. - B.48.

³Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: учеб. для ИФК / Л.П.Матвеев. - 3-е изд., перераб. – М.: Физкультура и спорт, Спорт Академ Пресс, 2008. – 544 с.; Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – М.: Советский спорт, 2005. - 820 с.; Антонова Н.И. Правовое обеспечение менеджмента коммерческих физкультурно-спортивных организаций: дис...канд.пед.наук.-Санкт-Петербург: 2013. -209 с.; Кандаурова Н.В. Организационно-управленческая и предпринимательская деятельность руководителя спортивной школы: дис...док.пед.наук.-Мос: 2014. -340 с.; Павлов А.Е. Совершенствование системы управления подготовкой спортивных резервов в единоборствах.: автореф. дис. ... док. пед. наук. - Улан-Удэ, 2012. - 42 с.; Хованская Т.В. Информационно-аналитическое сопровождение тренерской деятельности: дис...канд.пед.наук.-Волгоград: 2013. -145 с.; Литвинцева И.Г. Практическое обучение как фактор формирования профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры.: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Улан-Удэ, 2010. - 26 с.; Максимов Д.В. Индивидуализация физической подготовки высококвалифицированных единоборцев в подготовительном периоде.: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Москва, 2009. - 25 с.

van Rassel, Bonnie Sutter. Preston Wiley, Kathryn J.Schneider⁴ kabi olimlar kurash sport turlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Albatta, mazkur izlanishlarda kurashchilar umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish hamda bevosita murabbiylar malakasini oshirishga qaratilgan tadqiqot ishlarining tashkil qilinganligi muhim hisoblanadi. Biroq, bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda ilm-fandagi yutuqlar, yangi innovatsion yondashuvlarning yaratilishi mutaxassislarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, kurashchi murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirib borish, malaka oshirish jarayoni mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini tashkil qilish kerak bo'ladi. Shu jihatdan kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №V/I/ "Jismoniy tarbiya va sport faoliyatining nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirish asosida terma jamoalarida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kasbiy-pedagogik ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish" mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi malaka oshirish jarayonida kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

malaka oshirish jarayonida murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan amaliy mavzularni ishlab chiqish;

kurash bo'yicha murabbiylar uchun innovatsion yondashuvlar asosida ko'chma mashg'ulotlarning o'quv dasturini ishlab chiqish;

kurash bo'yicha murabbiylarda mahallalarda yoshlarning kurashga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan kompetensiyalarini rivojlantirish;

sport maktablari kurash murabbiylarining kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan sport pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqish.

⁴ Ma'rtin Tomin, Attila Kossa, Szabolcs Berezhvai, A'kos Kmetty. (2022) Investigating the impact behavior of wrestling mats via finite element simulation and falling weight impact tests// Polymer Testing journal . Volume-108. <https://doi.org/10.1016/j.polymertesting.2022.107521>.; Luke Capizzo. (2023) Managing intractability: Wrestling with wicked problems and seeing beyond consensus in public relations // Public Relations Review journal. Volume-49. <https://doi.org/10.1016/j.pubrev.2022.102263>.; S.R. Tabasia, A.A. Norastehb, B. Mirzaeic, H. Zarei. (2022) Proprioception and dynamic balance performance in wrestlers: Freestyle vs. Greco-Roman // Science & Sports. Volume-37. <https://doi.org/10.1016/j.scispo.2021.06.011>.; Kimberly S. Fasczewski a, Sara M. Powell b, Nolasco R. Stevens a, Jared W. Skinner. (2022) "Strong, fearless, tough, enduring": Collegiate male wrestlers' perceptions of body image and masculinity // Performance Enhancement & Health journal. Volume-10. <https://doi.org/10.1016/j.peh.2021.100212>.; O.Uzera, N.U.Yildirim b, C.Soylub, M.Ozal. (2023) Proprioception and dynamic balance performance in wrestlers: Freestyle vs. Greco-Roman // Science & Sports. Volume-38. <https://doi.org/10.1016/j.scispo.2022.03.009>.; Joel S. Burma, Ben Cameron, Tin Jasinovic, Victor Lun, Cody R. van Rassel, Bonnie Sutter. Preston Wiley, Kathryn J. Schneider. (2022) The effect of an exertional field-test on sport concussion assessment tool 5 subcomponents in University rugby and wrestling athletes: A pilot prospective case series // Physical Therapy in Sport journal. Volume-55. <https://doi.org/10.1016/j.ptsp.2022.01.005>.

Tadqiqotning obyekti sifatida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institut va uning Nukus, Samarqand filiallarida kurash bo'yicha murabbiylar malakasini oshirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarining kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirishning mazmuni, shakl va metodlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adabiyotlarni ilmiy-nazariy tahlil qilish, mahalliy hamda xorijiy murabbiylar va mutaxassislarning tajribasini o'rganish, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malaka oshirish instituti va uning filiallaridagi o'quv-mashg'ulot jarayonlariga oid hujjatlarini tahlil qilish, anketa so'rovnoma, pedagogik kuzatuvlar, testlar, tajriba-sinov ishlari, matematik-statistik kabi uslublardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

malaka oshirish jarayonida kurash mashg'ulotlarining nazariy va amaliy birligini ta'minlash uchun amaliy mashg'ulotlarda texnik-taktik elementlarini, fan modullariga murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan amaliy mavzularni kiritish hisobiga musobaqalarda bajariladigan usullarni bajarish samaradorligi oshirilgan;

kurash bo'yicha murabbiylar uchun ko'chma mashg'ulotlarni innovatsion yondashuvlar asosida loyihalash, trening modeli, keys-stadi, reflektiv analiz va interaktiv metodlarni namoyon etuvchi o'quv dasturini ishlab chiqish hisobiga individual va guruh shaklidagi mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

kurash bo'yicha murabbiylarda ijodiy faollik kompetensiyalarining nisbiy o'sishi hamda mahallalarda yoshlarning kurashga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan ijtimoiy omillar tahlil qilish o'quv mashg'ulotlarni tashkil qilish qismiga kiritish orqali erishilgan;

sport maktablari kurash murabbiylarining kasbiy mahoratini oshirish uchun mo'ljallangan na'munaviy o'quv dasturida belgilangan mashg'ulot vaqti, qismi, mashqlar nomi hamda shiddat zonalari optimal taqsimlangan sport pedagogik mahoratini oshirishdagi amaliy mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqish hisobiga texnik-taktik tayyorgarligini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kurash mashg'ulotlarining nazariy va amaliy birligini ta'minlashga xizmat qiluvchi amaliy mashg'ulotlarda texnik-taktik elementlar, fan modullariga murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan amaliy mavzular ishlab chiqilgan;

ko'chma mashg'ulotda kurash bo'yicha murabbiylarning amaliy tajribasini mustahkamlovchi o'quv dasturi ishlab chiqilgan;

kurash bo'yicha murabbiylarda ijtimoiy omillarni tahlil qilish orqali mahalla yoshlarining kurashga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarni tashkil qilish tajribasi oshirilgan;

sport maktablari kurash murabbiylarining kasbiy mahoratini oshirish uchun mo'ljallangan sport pedagogik mahoratini oshirishdagi amaliy mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda nazariy va metodologik asosi, tadqiqotning mantiqiy izchilligi, yagona metodologik asosda amalga oshirilganligi, yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar, kurash bo'yicha murabbiylarning ilmiy qarashlari bilan asoslanganligi, usullarning vazifalarga mosligi, tadqiqot maqsadi, tajriba qamrovining yetarli hajmi va reprezentativligi, eksperimental faoliyatning zaruriy davomiyligi, tadqiqot materiallari ustida miqdoriy va sifat tahlilini amalga oshirish hamda umumlashtirishni birgalikda qo'llanganligi hamda matematik statistika metodlar vositasida asoslanganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli vazirlik va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining samaradorligi, mazmuni mazkur pedagogik tadqiqot uslubiyati orqali istiqbolli murabbiylarni tayyorlashning individual dasturlarini ishlab chiqishda hamda ishonchli usullarini joriy qilishning asosini tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma'lumotlar malaka oshirish tizimida murabbiylar kasbiy mahoratini oshirishning malaka oshirish bosqichlarida ustuvor yo'nalishlarni belgilash, kasbiy mahoratning ilg'or yutuqlarini o'qitish, kasbiy kompetentlik va kreativlik mahoratini oshirish va takomillashtirishga yordam berib, ilmiy tadqiqot natijalari va kurash bo'yicha malakali murabbiylar tayyorlashning uslubiy ishlanmalari va mahoratini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Malaka oshirish jarayonida kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

malaka oshirish jarayonida kurash mashg'ulotlarining nazariy va amaliy birligini ta'minlash uchun amaliy mashg'ulotlarda texnik-taktik elementlarini, fan modullariga murabbiylarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan amaliy mavzularni kiritish bo'yicha takliflar mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Sport mashg'uloti nazariyasi va uslubiyati" o'quv modulining ko'chma mashg'ulotlar uchun ajratilgan mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 5-noyabrdagi 03-16/11136-son ma'lumotnomasi). Natijada, murabbiylarning mashg'ulotlarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari 30% ga oshgan;

kurash bo'yicha murabbiylar uchun ko'chma mashg'ulotlarni innovatsion yondashuvlar asosida loyihalash, trening modeli, keys-stadi, reflektiv analiz va interaktiv metodlarni namoyon etuvchi o'quv dasturidan foydalanish bo'yicha takliflar "Kurash" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirining 2023-yil 20-apreldagi 01/501-A/F-sonli buyrug'iga asosan 01/501-A/F-33 raqamli guvohnomasi). Natijada, kurash bo'yicha murabbiylarning ko'chma mashg'ulotlarini tashkil qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar respublika miqyosida barcha sport maktablariga tatbiq qilingan hamda

murabbiylarning ko'chma mashg'ulotlarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari 23,4% ga oshgan;

kurash bo'yicha murabbiylarda ijodiy faollik kompetensiyalarining nisbiy o'sishi hamda mahallalarda yoshlarning kurashga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan ijtimoiy omillar tahlil qilish o'quv mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha takliflar jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali Sport turlari bo'yicha trenerlar malakasini oshirish kurslarining nazariy hamda amaliy mashg'ulot jarayonlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 5-noyabrdagi 03-16/11136-son ma'lumotnomasi). Natijada, murabbiylarning kasbiy mahorati 30 % ga oshgan;

sport maktablari kurash murabbiylarining kasbiy mahoratini oshirish uchun mo'ljallangan na'munaviy o'quv dasturida belgilangan mashg'ulot vaqti, qismi, mashqlar nomi hamda shiddat zonolari optimal taqsimlangan sport pedagogik mahoratini oshirishdagi amaliy mashg'ulotlar dasturi bo'yicha takliflar jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali Sport turlari bo'yicha trenerlar malakasini oshirish kursida o'qitilyotgan "Sport mashg'uloti nazariyasi va uslubiyati" mazmuniga singdirilgan hamda amaliy mashg'ulotlarga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 5-noyabrdagi 03-16/11136-son ma'lumotnomasi). Natijada, murabbiylarning o'zlashtirish malakasini oshirish tizimi 33,4 % ga hamda texnik-taktik tayyorgarlik mahorati 11 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, shulardan ikkitasi xorijiy davriy nashrda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat, matni 121 betni tashkil etadi. Dissertatsiyada 8 ta jadval va 10 ta rasmlarda qayd etilgan diagrammalardan foydalanilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchlilik, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirishning pedagogik muammolari**" deb nomlangan birinchi

bobida kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish muammolari, kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari, kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish ishlarini tashkil qilishning zamonaviy konsepsiyasi mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish asosida yoritib berilgan. Jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonlarini o'rganish, tadqiq qilish sohada malakali murabbiylar tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish imkoniyatini berishi hamda jismoniy tarbiya va sport sohasida mehnat qilib kelayotgan mutaxassislarning har tomonlama bilimlarining shakllanishi, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishini oshirishda hamda ular orasidan malakali sportchilarni saralab olishida muhim hisoblanadi. Xususan, birgina kurash sport turi bo'yicha murabbiylarning o'z sohasidagi muammolarni ko'ra bilishi kurash sport turini yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi asoslab berilgan. Shuningdek, kurash bo'yicha murabbiylarning o'quv-mashg'ulotlarini tashkil etish hamda kasbiy mahoratini oshirishdagi muammolarni aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari keltirilib, mavjud muammolar aniqlangan hamda bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Kurash bo'yicha murabbiylardan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

T/r	So'rovnoma savollari	Ha	Yo'q
1.	Kurash sport turi bo'yicha mashg'ulot o'tish uchun sharoit mavjudmi?	17	4
2.	Mashg'ulot jarayonida shug'ullanuvchilarni qiziqitira olasizmi?	20	1
3.	Sizning tumaningizda kurash murabbiylari yetarli malakaga ega deb o'ylaysizmi?	12	9
4.	Mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tish uchun sharoitlar yetarli darajadami?	7	14
5.	Innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa mashg'ulot samaradorligi maksimal darajada oshadi deb o'ylaysizmi?	19	2
6.	Mashg'ulot o'tish uchun shug'ullanuvchilar ishtiroki sizni qoniqtiradimi?	20	1
7.	O'tayotgan mashg'ulotingiz shug'ullanuvchilar uchun yetarli darajada deb o'ylaysizmi?	14	7
8.	Bolalarni saralab olishda ularni qobiliyati siz uchun ahamiyatlimi?	19	2
9.	Kasbiy mahoratingizni takomillashtirish uchun sohaga oid o'quv, uslubiy qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar yetarlimi?	17	4
10.	Malaka oshirish jarayonida dars mashg'ulotlarini olib borayotgan professor-o'qituvchilarning bilimi saviyasi tajribasi pedagogik mahorati sizni qoniqtiradimi?	19	2
11.	Ko'chma mashg'ulotlarni o'tkazish uchun yaratilgan shart sharoitlardan kunglingiz to'ladimi?	20	1
12.	Malaka oshirish jarayonida murabbiylarning kasbiy mahoratini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar talabga javob beradimi?	20	1

“Sizning tumaningizda kurash murabbiylari yetarli malakaga ega deb o‘ylaysizmi?” savoliga 9 nafar murabbiyning “Yo‘q” deb hamda “Mashg‘ulotlarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘tish uchun sharoitlar yetarli darajadami?” savoliga 14 nafar murabbiyning “Yo‘q” deb javob berishi malakali murabbiylar hamda sharoitlar masalasi kurash sport turini rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biri ekanligini ko‘rsatgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida unda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so‘rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik-nazorat testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanganligi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, pedagogik tadqiqotning 3 ta bosqichda tashkil qilinganligi ko‘rsatib o‘tilgan:

Birinchi bosqich (2022-yil). Ushbu bosqichda tadqiqot mavzuimizga doir adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, tadqiqot mavzusini shakllantirish, tadqiqotimizning maqsad va vazifalarini hamda yechilishi lozim bo‘lgan muammolarni aniqlash, pedagogik tajribani o‘tkazish bosqichlari va muddatlarini belgilash, tajriba tadqiqotlarida qo‘llaniladigan usul va uslublarni aniqlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqich (2023-yil). Bu bosqichda Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand va Nukus filiallarida malaka oshirayotgan kurash bo‘yicha murabbiylar bilimlarini aniqlash, pedagogik tajriba uchun nazorat hamda tajriba guruhlarini tanlash, ularga tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan usul va uslublarning mazmuni tushuntirish, tadqiqotlarni o‘tkazish uchun sinov guruhlarini tinglovchilarining ko‘chma mashg‘ulotlari faoliyatini kuzatish, harakatlarini tahlil qilish ishlari amalga oshirildi.


Uchinchi bosqich (2023-2024-yillar). Bu bosqichda Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand va Nukus filiallarida sport turlari bo‘yicha trenerlar malakasini oshirish kursida o‘qitiladigan “Sport mashg‘uloti nazariyasi va uslubi” hamda “Sport pedagogik mahoratini oshirish” o‘quv modullarini ko‘chma mashg‘ulotlarini tashkil qilish jarayonlari hamda ijtimoiy munosabatlaridagi harakatlari yuzasidan pedagogik tajriba sinov ishlari o‘tkazildi. Pedagogik tajriba sinov ishlarida nazorat va tajriba guruhida jami 100 nafar kurash bo‘yicha murabbiylar ishtirok etishdi.

Dissertatsiyaning **“Kurash bo‘yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan uchinchi bobida kurash bo‘yicha murabbiylar malakasini oshirish jarayoni tahlil qilingan bo‘lib, murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish yo‘llari, kurash bo‘yicha murabbiylar kasbiy mahoratini oshirish jarayonini uzluksiz tashkil qilishning metodologik tamoyillari o‘rganilgan.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va

malakasini oshirish instituti hamda uning Nukus, Samarqand va Farg'ona filiallariga biriktirilgan sport-ta'lim muassasalarida malaka oshirish kurslari ko'chma va amaliy mashg'ulotlari sport ta'lim muassasalarining sport inshootlarida jumladan Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi, Sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi, Sport maktablari hamda hamkorlik shartnomasi doirasida Sport federatsiyalarida dars mashg'ulotlari zamonaviy tarzda tashkil qilinadi. Bunda trenerlar: sport turlari texnikasi va taktikasini o'rgatishning vosita, uslubiyati, tamoyillarini o'rganadi; o'quv-mashq mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishni tashkil qiladi; jismoniy tayyorgarligini oshirish va rivojlantirish vositalarini o'rganadi; sport mashg'uloti asoslari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari mustaxkamlanadi; sport turi bo'yicha sport musobaqalarini hujjatlashtirish va olingan natijalarni tahlil qila oladi; mashg'ulot yuklamasining sportchi organizmiga ta'siri, tayyorgarlik jarayonida toliqish va tiklanishi; bolalar va o'smirlar bilan sport mashg'ulotlarini tashkillashtirishda yosh xususiyatlari kabi kasbiy malakalariga hamda kompetensiyalariga ega bo'lishadi hamda sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning vosita va uslublari, mashg'ulotlarni o'tkazishda sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarida yuklama va uni sportchilar organizmiga ta'siri, sportchilarning musobaqa faoliyatini nazorat qilishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar. Shuni alohida aytish joizki, ko'chma mashg'ulot jarayonida murabbiylarning texnik mahoratini oshirish yo'llarini, taktik tayyorgarlik maqsadi va vazifalarini, hujum harakatlarini tayyorlash taktikasini, musobaqalarda qatnashish taktikasini, yuklamaning sportchi organizmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarini, sportchilarni musobaqa faoliyatini nazorat qilishni, o'quv-mashg'ulotlarda yuklamani qayd qilish va yuklamalar tasnifi bilan taqqoslashni, sport musobaqalarini o'tkazish tizimlari va tahlilini, sport mashg'ulotlarini mazmuni va shakllari bo'yicha optimal ravishda sport tayyorgarligi va musobaqa faoliyatini tahlil qiladi, ma'lumot va tajriba almashadi. Bunda eng tajribali murabbiylar ishtirokida tashkil qilinadi.

Amaliy mashg'ulot jarayonida esa sportchining jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini aniqlash uchun sinov me'yorlarini qabul qilish texnologiyasi ishlab chiqiladi, o'quv trenirovka jarayonini mahoratning o'rni, sport o'lchovlarining nazariy asoslari, sportchilarni mashg'ulot jarayonida pedagogik nazorat qilish, sport mashg'ulotlarida yuklama va uni sportchilar organizmiga ta'siri, yukning ixtisosligini nazorat qilish, yuklama yo'nalishini nazorat qilish, musobaqa yuklarini nazorat qilish, yuklamalarni sportchining jismoniy va funksional imkoniyatlariga qarab rejalashtirish, mashg'ulot jarayonida turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarish ketma-ketligi tahlil qilinadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Innovatsion yondashuvlar asosida kurash bo'yicha murabbiylarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish jarayonining tashkil qilinishi.

Tadqiqot natijasi kurash bo'yicha mutaxassislar kasbiy mahoratini oshirish tizimini rivojlantirish ishlarini tashkil qilishda berilayotgan bilimlarning zamonaviylik darajasi, kasbiy mahoratiga mosligi, murabbiylarda kreativ fikrlash hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatgan. Chunki mazkur omillar zamonaviy ta'limning asosini tashkil qilib, murabbiylar kasbiy mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, turli sohalar va kasblarning paydo bo'lishi rivojlanishi kichik bo'lgan murakkab kasblarni shakllanishi va rivojlanishini yuzaga keltirib, mutaxassislarga o'z sohasidagi yangiliklardan foydalanish malaka va tajribasiga ega bo'lishi zarurligi ko'rsatmoqda. Mazkur holat ma'lum bir sohaning barcha sirlarini bilishni emas, balki kichik bir sohani to'liq o'zlashtirib, uning imkoniyatlaridan to'liq va mahorat bilan foydalanish ko'nikmasiga, ya'ni kompetentlikka ega bo'lish kerakligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini oshirish talablari doirasida kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini oshirish jarayonida ko'chma mashg'ulotlarni tashkil qilish metodikasi ishlab chiqildi.

Mazkur metodikaning samaradorligini aniqlash bo'yicha tadqiqot ishlari Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Instituti va uning Samarqand, Nukus filiallarida Sport turlari bo'yicha trenerlar malakasini oshirish kursida o'qitiladigan "Sport pedagogik mahoratini oshirish" o'quv modullarini ko'chma mashg'ulotlarini tashkil qilish jarayonida olib borildi. Ko'chma mashg'ulotlarni tashkil qilishda 6 ta mashg'ulot dasturida barcha tayyorgarlik turlarini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha mashg'ulotlar davomida amaliy tavsiya va takliflar berib borildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Sport pedagogik mahoratini oshirish o'quv moduli mashg'ulot dasturi

Hafta kuni	Vaqt	Mashg'ulot qismi	Mashqlar nomi	Shiddat zonasi
Dushanba	3 soat	Tayyorlov	Maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnika takrorlash, aylana yugurish (oyoq uchida yurish), yon tomonlarida yurish, tovonda yurish, ishora bilan orqaga aylanib tez yugurish, moksimon yugurish, balantga sakrash, pres anjimoniya bajarish va boshqalar)	O'rta (65-75%)
		Asosiy	Texnik tayyorgarlik. yangi va yoqasidan ushlab usulga kirib chiqish 10 soniyadan ishora orqali (Yoqasini ushlab yelka usulini bajarish, Ikkala yengini ushlab yelkadan oshirish usulini ketmaketlikda ishora bilan ishlash, Yengi va yoqasini ushlab ikkala tizani tatamiga qo'yib bajarish ketma ket bajarish, Yengi yoqasini ushlab ikkala oyog'ning orqasiga	Yuqori (85-95%)

2-jadval davomi

			o'tish 1 kurashchi o'tirib turish	
			mashqini bajarib ishoradan kegin usulga kirib chiqish, Yengi va belidan ushlab belidan oshirish usuli kurashchini joyidan xarakatlantirib (30 soniyadan ishora orqali bajarish)	
		Yakunlov	Stretching va tiklovchi mashqlar	Past (40-50%)
Seshanba	3 soat	Tayyorlov	Umumiy jismoniy tayyorgarlik, texnik usullarni takrorlash, O'nga va chapga yon bilan yugurish, (ishora bilan balantga sakrash aylana sakrash, orqaga umbaloq oshish), tizzalarni oldinga ko'tarib yugurish, (yon tomonga ko'tarish, ichkariga va yonga ko'tarib yugurish, tizani bukmagan xolda oldinga cho'zib yugurish), aylana yugurishda zigzak bilan yugurish, (bir birini ustidan sakrab yugurish, oyoqlar orasidan yugurish oyoqlar orasidan egilib o'tib yugurish)	O'rta (65-75%)
		Asosiy	O'quv bellashuvlarini to'g'ri tashkillashtirish usullari, chil usularini bajarish almaship almaship (Ikki yengidan ushlab oyoq tashqarisidan supurma usulini ishlash, Yengi va yoqasidan ushlab oyoq ichidan tovon bilan chalish usulini ishora bilan bajarish, bita yengidan ushlab o'tirib chil usulini ishlash ishora bilan, yengi va yoqa yuqorisidan ushlab ikkala oyoq orqasiga o'tish 20 soniya davomida ishora bilan bajarish)	Yuqori (85-95%)
		Yakunlov	Tiklovchi mashqlar, bel va bo'yin mushaklari uchun mashqlar.	Past (40-50%)

Izoh: Sport pedagogik mahoratini oshirish o'quv moduli mashg'ulot dasturining to'liq haftalik qismi dissertatsiyada berilgan.

Dasturning asosiy maqsadi – murabbiy-pedagoglarning faqatgina texnik va taktik tayyorgarligini rivojlantirish bilan cheklanmasdan, balki ularning umumiy hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha kasbiy salohiyatini ham kompleks tarzda oshirishdan iboratdir. Ushbu yo'nalishdagi faoliyatda sportchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni individual va guruhviy shaklda samarali tashkil etish, mashg'ulot yuklamalarini ilmiy asosda me'yorlashtirish hamda boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, sportchilarda harakatlarni to'g'ri va samarali bajarish bo'yicha texnik va uslubiy kompetensiyalarni

chuqur egallash, mashg'ulot jarayonining samaradorligini ta'minlashda asosiy omil sifatida qaraladi.

Mashg'ulotlar dasturiga muvofiq, haftaning har kuni uchun mashg'ulotlar uch qismga ajratilgan: tayyorlov, asosiy va yakunlov qism. Har bir bosqich o'ziga xos metodik vazifalarni amalga oshirish uchun aniq belgilangan shiddat zonalarida (past 40-50%, o'rta 65-75%, yuqori 85-100%) bajarilishi lozim bo'lgan mashqlardan iborat.

Dastur metodik jihatdan ilmiy asoslangan holda tashkil etilgan bo'lib, sport pedagogikasining zamonaviy talablariga muvofiq ravishda yuklamalarni optimal tarzda taqsimlash, sportchilarni uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonida bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyillariga amal qiladi. Shu bilan birga, dasturning samaradorligini oshirish uchun texnik va taktik mashqlar, ayniqsa, "chil", "yoqa usuli", "bel usuli", "yelka usuli" kabi an'anaviy usullarni yanada chuqurroq egallash va amaliy jihatdan qo'llashga imkon yaratadi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan mazkur dastur murabbiy-pedagoglarga sportchilarni tayyorlash jarayonida individual yondashuvlarni samarali qo'llash imkonini yaratadi va kurashchilarni musobaqa sharoitiga kompleks tayyorlashda muhim metodik vosita sifatida xizmat qiladi. Dastur doirasida o'quv-mashg'ulot jarayonlarini ilmiy-tadqiqot metodlari asosida kuzatish, baholash, xulosa chiqarish ko'nikmalarining shakllanishi ham ko'zda tutilgan.

Dastur asosida belgilangan metodik yondashuvlar va vazifalar sport pedagogikasi hamda kurash nazariyasining ilmiy asoslariga qat'iy amal qilingan holda ishlab chiqilgan. Mashg'ulotlar davomida murabbiylar tomonidan pedagogik monitoringni olib borish, mashqlar samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, individual va guruhli o'quv holatlarini chuqur o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Natijada, sportchilar tayyorgarligining sifatini oshirish, yuklama va natija o'rtaidagi bog'liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **"Kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish samaradorligi"** deb nomlanadi. Mazkur bobda kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish dasturining tuzulishi va mazmun mohiyati ochib berilgan hamda kurash bo'yicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish samaradorligi pedagogik tajribada asoslash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalarining tahlili bayon qilingan.

Kurash bo'yicha murabbiylar malakasini oshirish jarayonini rivojlantirish maqsadida malaka oshirishga kelgan mutaxassislarda yani kurash bo'yicha murabbiylarda tadqiqot ishlarini tashkil qildik. Tadqiqot ishlarimizda ishlab chiqilgan dastur asosida amaliy mashg'ulotlar tashkil qilindi hamda tadqiqot va nazorat guruhlarini tashkil qilish orqali tadqiqot ishlarimizning samaradorligi o'rganildi. Tadqiqotlar Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiallarida malaka oshirish kurslarida malaka oshirgan kurash mutaxassislari orasida o'tkazildi.

Sport ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan sport turlari bo'yicha trenerlarning malaka oshirish kursi ishchi o'quv rejasi 4 ta blok va o'quv modullaridan iborat.

Birinchi blok Umumiy tayyorgarlik deb nomlanib, uchta o'quv moduli (Yangi O'zbekiston strategiyasi, Sport ta'limini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari, Amaliy xorijiy tilni o'tganishning intensiv usullari) kiritilgan. Ushbu blokda o'quv modullariga jami 18 soat ajratilgan.

Ikkinchi blok Umumkasbiy tayyorgarlik deb nomlanib, uchta o'quv moduli (Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Trenerning professional kompetentligi va mahorati, Sportda hayot faoliyati xavfsizligi) kiritilgan. Ushbu blokda o'quv modullariga jami 18 soat ajratilgan.

Uchinchi blok Mutaxassilik bo'yicha tayyorgarlik deb nomlanib, to'qqizta o'quv moduli (Sport psixologiyasi, Sportchi organizmining fiziologik asoslari, Sport nutritsiologiyasi, Sport tibbiyoti, Sport mashg'uloti nazariyasi va uslubiyati, Sportda saralash (seleksiya), Sport pedagogik mahoratini oshirish, Sport musobaqalari tahlili, Sport inshootlari) kiritilgan. Ushbu blokda o'quv modullariga jami 106 soat ajratilgan (3-jadvalga qarang).

To'rtinchi blok Malakaviy attestatsiya deb nomlanib, yakuniy test (oflayn, onlayn) sinovlari kiritilgan hamda mustaqil tayyorgarlik uchun 2 soat ajratilgan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Sport ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan sport turlari bo'yicha trenerlarning malaka oshirish kursi ishchi o'quv rejasi namunasi

T/r	Bloklar va o‘quv modullari nomi	Tinglovchining o‘quv yuklamalari soatlari				Mustaqil tayyorgarlik	Haftalar bo‘yicha soatlar taqsimoti			
		Auditoriya o‘quv yuklamalari					I	II	III	IV
							Kunlar bo‘yicha soatlar taqsimoti			
		Jami	Nazariy	Amaliy	Ko‘chma mashg‘ulot		6	6	6	6
III.	Mutaxassilik bo‘yicha tayyorgarlik	106	52	30	24		24	20	28	34
3.5	Sport mashg‘uloti nazariyasi va uslubiyati	24	14	4	6		2	4	12	6
3.7	Sport pedagogik mahoratini oshirish	18			18					18

